



## MASOFAVIY XIZMATLAR KO`RSATISHNI TA'MINLASH ORKALI TIJORAT BANKLARINING RAQAMLI TRANSFORMATSIYASINI AMALGA OSHIRISH

Toshkent Davlat iqtisodiyot Universititi  
Raqamli iqtisodiyot fakulteti  
Mamasiddiqov Sardorjon Ro'ziali o'g'li

**Annotatsiya:** Mazkur maqola bugungi kunning dolzarb mavzusi masofaviy xizmat ko'rsatish va banklarda raqamli transformatsiyani amalga oshirish mavzusini yoritadi. Shuningdek, maqolada biznesni raqamlashtirish tushunchasi keng yoritildi.

**Kalit so'zlar:** *AKT, elektron bazalar, moliyaviy xizmatlar, Raqamli transformatsiya, infratuzilma, FinTech tendentsiyasi, masofaviy bank xizmatlari.*

Bugungi kunda har birimiz ishning katta qismini uyda, qo'limizdagi birgina telefon yoki planshet bilan bajarish imkoniyatiga egamiz. Shuningdek, mobil ilova ochish yoki har qanday tashkilotning rasmiy saytiga kirib, kerakli ma'lumotlarni olish, buyurtmani rasmiylashtirish, to'lov qilish va hatto shikoyat yuborish ham mumkin. Bir necha soniya ichida bu operatsiyalarni amalga oshirish imkonini beruvchi dasturlar va qurilmalar mavjud, axir ilgari bunga oylar ketardi, ko'pincha kun bo'yi navbatda turishga to'g'ri kelgan. Bularning barchasi axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) ning rivojlanishi, axborotning raqamlashtirilishi, tarqoq ma'lumotlarning qog'oz manbalaridan elektron bazalarga birlashtirilishi natijasidir. AKTning hayotimizga jadal kirib kelishi jahon xo'jalik munosabatlarining globallashtirishini, tovarlar va xizmatlar, shu jumladan, moliyaviy xizmatlar yetkazib beruvchilari bozoridagi raqobatni keskin kuchaytirdi.

O'zbekistonda 2020-2022 yillarda iqtisodiyotning real sektori tarmoqlarini raqamlashtirishning yo'nalishlari sifatida sanoat korxonalarining ishlab chiqarish



va texnologik jarayonlarni, moliyaviy-iqtisodiy faoliyatni avtomatlashtirish, moddiy-texnik resurslarni hisobga olish va boshqarish, shuningdek mijozlar bilan munosabatlarni tartibga solish, mahsulotlarni elektron sotish, marketingni boshqarish tizimlarini joriy etishga e'tibor qaratiladi. Mazkur yo'nalishda 100 ga yaqin loyihalar, jumladan, tog'-kon sanoati, metallurgiya, neft-gaz sohalari faoliyatini raqamlashtirish bo'yicha yirik loyihalar amalga oshirilishi ko'zda tutilmoqda.

Bugungi kunda biznesni raqamlashtirish faqat elektron hujjat aylanishiga o'tish bilan cheklanib qolmaydi[1]. Raqamli transformatsiya haqida gap ketganda, biz ishlab chiqarish madaniyati va korxonalarini boshqarish uslubini o'zgartirishga imkon beruvchi zamonaviy texnologiyalarning majmuini nazarda tutamiz. Raqamli yechimlar tufayli dunyodagi ko'pgina kompaniyalar xodimlar va sanoatdagi uskunalari samaradorligini oshirmoqdalar. Shu bilan birga, mijozlarga yaxshiroq xizmat ko'rsatish va biznes olamidagi raqiblariga nisbatan muvaffaqiyatga tezroq erishadilar. Raqamli transformatsiya jarayonini davlat tashkilotlari, korxonalar, biznes-tuzilmalarida axborot texnologiyalarni oddiy joriy etish deb hisoblamasliklari kerak. Shuningdek korporativ veb-saytni, Telegram botni, mobil ilovani ishlab chiqish va ishga tushirish va ijtimoiy tarmoqlarga kirish, tashkilotlar o'zlarini raqamli deb hisoblashiga imkon berishiga ishonish noto'g'ri.

Aslini olganda, raqamli transformatsiya haqida gapirganda bu yangi texnologiyalarga investitsiya kiritishni o'z ichiga olgan muayyan tashkilot/korxonaning barcha mavjud modelini, ya'ni to'g'ridan-to'g'ri tuzilishiga, rivojlanish strategiyasiga, mijozlar bilan ishlashga, mahsulotlarni ilgari surish va xizmat ko'rsatish usullari, va hatto korporativ madaniyat kabi o'zgarishlar to'plami ekanligini tushinish kerak. Bugungi kunda raqamli transformatsiya deyarli har qanday faoliyat sohasiga taalluqlidir. U ta'limga keldi va biz zamonaviy maktablar, kollejlari va OTM lari interfaol doskalardan foydalanayotganini, o'quvchilar elektron kundaliklarni yaratishni, audio va video-tarkibini yaratishni, qo'shma loyihalarni amalga oshirayotganini, o'qituvchilar ijtimoiy tarmoqlar orqali





maslahat berayotganini va hokazolarni ko`rmoqdamiz. Zamonaviy texnologiyalar an'anaviy ta'lim bilan o`qitishni amalga oshirib bo`lmaydigan usullardan foydalanishga imkon berayotganidan mamnunman, ya'ni AT tobora o`sib kelayotgan avlod uchun muhim tafakkur vositasiga aylanib bormoqda.

Biz bank sohasida raqamlashtirish uchun yetarli tajriba orttirdik va so`nggi bir necha yil davomida ushbu yo`nalishni faol ravishda qo`llab-quvvatladik. Joriy yilning o`zida o`n bitta loyiha muvaffaqiyatli amalga oshirildi, ulardan – yetti nafari mamlakatimiz banklarida. Xususan, ATB «Qishlok qurilish bank» da axborot xavfsizligi vazifalarini kompleks hal etish bo`yicha yirik loyiha muvaffaqiyatli amalga oshirildi. Shunday qilib, bankka AT-infratuzilmani monitoring qilish va tarmoq infratuzilmasini boshqarish uchun dasturiy ta`minot yetkazib berildi va joriy etildi. Tavsiya etilgan yechim bankning barcha AT-infratuzilmasida yuzaga kelishi mumkin bo`lgan nosozliklarni proaktiv boshqarish bilan ajralib turadi, uning jismoniy samaradorligini oshiradi.

Bugungi kunda an'anaviy bank xizmat turlarining o`rnini raqamli banking xizmat turlari egallamoqda. Chunki banklar xizmat turlarini takomillashtirib bormas ekan, ular daromadini va mijozlar sonini keskin oshirib borish imkoniyatidan mahrum bo`lishi mumkin[2]. Moliyaviy xizmatlar sanoatining rivojlanishi bois jadallashmoqda. Biz yuqorida muhokama qilgan FinTech tendentsiyalari mijozlar talabiga javoban paydo bo`ldi. Ular aslida provayderlarga moliyaviy ma'lumotlardan foydalanish imkoniyatlarini oshirish, shaffoflikni oshirish, tranzaksiyalarni tezkor qayta ishlash, masofadan xizmatlarni ko`rsatish, identifikatsiya qilishning ishonchli usullari va mijoz hayotining aylanish jarayonini yaxshiroq qo`llabquvvatlashga imkon beradigan yanada sifatli xizmatlarni taqdim etishga yordam beradi.

Bank tizimi ham zamon talablariga muvofiq axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy qilishni davom ettirmoqda va shu tariqa ko`plab bank xizmatlari avtomatlashtirilmoqda. Endi deyarli barcha bank xizmatlarini mobil telefon yoki maxsus qurilmalar yordamida bir lahzada olish mumkin. Bir necha yil





oldin bunday imkoniyat yo`q edi. Prezidentimiz tomonidan 2020 yil 12 may kuni tasdiqlangan «2020- 2025 yillarga mo`ljallangan O`zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi»da zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish, tijorat banklarining biznes jarayonlarini avtomatlashtirish va masofaviy bank xizmatlarini kengaytirish uchun zarur shart-sharoitlar yaratish kabi ustuvor vazifalar belgilab olindi. Zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish sohasida tijorat banklarining korporativ transformatsiyasi jarayonida quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish rejalashtirilgan:

- masofaviy bank xizmatlari, shu jumladan, kontaktsiz to`lovlarning soni va qamrovini kengaytirish;
- skoring, masofadan turib identifikatsiyalash va kredit konveyyeri tizimidan keng foydalanish;
- bank axboroti va tizimlarning axborot xavfsizligini kuchaytirish;
- bank sektorida yangi kontseptsiyalar va texnologiyalarni keng joriy etish (fintek, raqamli banking).

Ushbu qadamlar mamlakatimizda raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish, O`zbekiston iqtisodiyotining jadal o`shishini ta'minlashga, mamlakatning jahon iqtisodiyotiga va iqtisodiy rivojlangan mamlakatlar bilan bir qatorda erkin bozorga integratsiyalashuvini jadallashtirish uchun bank xizmatlarini raqamlashtirishga qaratilgan[3].

Xulosa o`rnida shuni ta'kidlash kerakki, aqamli sanoatlashtirish bugungi kunga kelib davlatlar iqtisodiyotining rivojlanishidagi asosiy harakatlantiruvchi kuchga aylandi. 2019 yilda sanoatni raqamlashtirish jahon raqamli iqtisodiyotining 84,3 foizini va jahon yalpi ichki mahsulotining 35 foizini tashkil etdi. Rivojlangan mamlakatlarda sanoatni raqamlashtirish raqamli iqtisodiyotning 86,3 foizini tashkil qildi. Rivojlanayotgan mamlakatlarda bu ulush 78,6 foizni tashkil etdi. Rivojlangan davlatlar aloqa va dasturiy ta'minot sohasidagi eng kuchli vakillar bo`lib, ular elektron tijorat va ilg`or ishlab chiqarish bilan shug`ullanishni eng





birinchilardan bo‘lib boshlab bergan mamlakatlar qatoriga kiradi[4]. Rivojlangan mamlakatlarda ko‘pincha raqamlashtirish va o‘shish ko‘rsatkichlari har uchala sektorda ham deyarli bir xil muvozanatda ortib boradi. Ular odatda yangiliklarni birinchilardan bo‘lib joriy etish borasida ustunlikka ega bo‘ladilar va ularda sanoatni raqamlashtirish uchun mustahkam asos bor. Bu mamlakatlarda tarmoqlarning ko‘pchiligi raqamli texnologiyalardan foydalanadi, ularning aloqa tarmoqlariga ulanish foizlari borgan sari ortib bormoqda va ular aqlli texnologiyalar bilan nisbatan ko‘proq ta'minlangan.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Ulug`bek MAHMUDOV. BANK TIZIMIDA RAQAMLI MOLIYaviy XIZMATLAR: TARAQQIYot VA OLDINDA TURGAN VAZIFALAR YeChIMI. «O‘zbekiston iqtisodiy axborotnomasi – Ekonomicheskij vestnik Uzbekistana» TAHLILiy JURNAL/ANALITICheskiy JURNAL. 2021
2. Mamadiyarov Zokir Toshtemirovich. BANKLARNI TRANSFORMATSIYa QILISH ShARoITIDA MASoFAVIY BANK XIZMATLARI BILAN BOG`LIQ RISKLARNI BOShQARISH. IQTISOD VA MOLIYa / EKONOMIKA I FINANSYI 2021, 5(141)
3. <https://fayllar.org/1-raqamli-transformatsiya-strategiyasining-asosiy-yonalishlari.html>
4. <https://kun.uz/uz/news/2021/08/24/huawei-sanoat-tarmoqlarini-raqamlashtirish>

